

“BADIY ADABIYOTDA HOTAMITOIY OBRAZI”**Odilova Sarvinoz Abrorbek qizi****Farg‘ona davlat universiteti Filalogiya va tillarni
o‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishi 1-kurs 25.105-guruh talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20027431>**

Badiiy obraz atamasi keng va tor ma‘nolarda ishlatiladi. Keng ma‘noda badiiy obraz deganda borliqning san‘atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ijodiy qayta ishlangan qayta aksi (jonivorlar, narsa-buyumlar, hodisalar, tabiat obrazlari) nazarda tutilsa, tor ma‘noda badiiy asardagi inson obrazi tushuniladi¹. Bundan tashqari adabiyotshunoslikka doir manbalarda inson obrazi tushunchasi personaj termini bilan ham ifodalandi. Personaj (lot.persona-shaxs, teatr maskasi) deganda badiiy adabiyotdagi inson obrazi, adabiy asarlardagi voqea ishtirokchisi, his-kechinma va nutq subyektini tushuniladi.² Xususan, badiiy adabiyotda salmoqli hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan Hotamtoy obrazini oladigan bo‘lsak, Hotamtoyning ijodiy xarakteri, uning bir necha xususiyatlari davrlar osha ko‘plab ijodkorlarning asarlaridan o‘rin olib kelmoqda.

Hotami Toy –saxiyligi va oliyjanoblighi bilan sharq mamlakatlarida dong taratgan shaxs. To‘liq ismi Abu Safona Hotam ibn Abdulloh ibn S‘adi Toy taxminan VI asr oxiri Yaman VII asr boshida yashagan. Toy qabilasining boshlig‘i mashhur lashkarboshi va shoir bo‘lgan. Adl-u insof, saxiyligi va yaxshiligi bilan dastlab yaqin qabilalar keyin butun Arabiston va Sharq xalqlari orasida Hotami Toy (qabilasi)dan bo‘lgan Hotam nomi bilan shuhrat qozongan.

Hotamitoy obrazini biz turkiy xalqlar adabiyotida Sa‘diy Sheroziyning mashhur asalari hisoblangan “Guliston” hamda “Bo‘ston” nida ham ko‘rishimiz mumkin. Sheroziy bu obrazlardan o‘zining axloqiy, tarbiyaviy g‘oyalarini, ayniqsa, saxovat va tavoze tushunchilarini tushuntirish uchun “ideal etalon” sifatida foydalangan. “Bo‘ston” asarida Hotamtoy: “Bo‘ston” –she‘riy asar bo‘lib uning ikkinchi bobi to‘liq “Ehson (saxovat) haqida” deb nomlangan. Ushbu bobda mashhur hikoyatlar keltirilgan. Xususan, “Hotamning oti” hikoyatida Rum podshohi Hotamning saxovatini sinash maqsadida elchilarni yuborib eng yaxshi ko‘rgan otini so‘ratadi. Hotamtoy elchilarning bunday maqsadda kelganidan xabarsiz ularning oldiga tortishga hech narsasi qolmaganidan sevimli tulporini so‘yib gazak bilan elchilarni mehmon qiladi. Mehmondorchilikdan so‘ng elchilar o‘z maqsadlarini bayon qilganida Hotamtoy afsus chekib oldilariga tortgan gazagi ana shu so‘rab kelishgan otning go‘shtidan ekanligini aytib oldinroq xabar berishmaganligidan nadomat chekib afsus qiladi”. Ayni mana shu “Bo‘ston” asarida keltirilgan: “Yaman shohi Hotamtoyga hasad qilib, uni o‘ldirish uchun jallod yuboradi. Bundan xabarsiz Hotamtoy jallodni turli noz-ne‘matlar bilan mehmon qilib izzat-ikrom ko‘rsatadi. So‘ng jallod, “Hotamtoy deganlari kerak menga qayerda yashashini bimaqsanmi?” – deb so‘raganida Hotamtoy jallodga “Mana menman o‘sha, bu esa boshim, meni o‘ldirib mukofotingni ol”, deya javob beradi. Ammo jallodning bunday qilishga vijdoni yo‘l qo‘ymay uning xizmatiga hamisha tayyor ekanligini aytib podshoh huzuriga qaytadi va bo‘lgan voqeani podshohga so‘zlab beradi. Buni eshitgan Yaman shohi Hotamning saxovati va oliyjanobligiga lol qoladi”.³ Shayx Sa‘diy Sheroziyning yuqorida keltirilgan hikoyatlaridan Hotamning qanchalar saxovatli

¹ D. Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari Tosh. Navoiy Universiteti 2018. 97-bet

² D. Quronov Adabiyot nazariyasi asoslari Tosh. Navoiy Universiteti 2018. 99-bet

³ S. Sheroziy “Bo‘ston” asari Tosh. 2024. 106-113 bet

ekanligidan tashqari uning naqadar mehmondo ‘st, kichik ko‘ngil va hatto jallodga boshini taqdim qila oladigan darajada mard ekanligini ko ‘rishimiz mumkin.

Sa‘diy Sheroziydan keyingi davr adabiyotiga yuzlanadiga bo ‘lsak Hotamitoy obrazini Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asarida ham ko ‘rishimiz mumkin. Ammo, Navoiy Hotamtoyning saxovatini so‘zlar ekan uni huddi Sheroziydek emas balki yana bir yangi talqinda namoyon qiladi. Xususan, A. Navoiy haqiqiy Hotamtoy inson qaddini mashaqqat past aylasada, jismida g‘am tikani azob berayotgan damlarda ham har chand mashaqqatlar cheksada ana shu mashaqqatlarga sabr-u bardosh ila himmatini baland qilgan inson, hattoki, Hotamtoydan afzal ekanlini ta‘kidlaydi va Navoiy o‘ziga nasihat qilib shunday jummalarni keltiradi: “Ey Navoiy, sening ham himmating yuqori bo ‘lganda, Hotamtoy senga band bo ‘lar edi”.⁴ Navoiy ushbu jummalarni keltirar ekan himmati yuqori bo ‘lgan inson Hotamtoy kabi saxovatpeshalarning minnatli oshlariga muhtoj bo ‘lmasligi va ana shu saxovatlarga qaram bo ‘lib, tilanchilik arqoni ila o‘zini bog‘lagan va g‘ayrat ostonasidan o‘tmay o‘zini harob qilganlardan bo‘lib qolmasligini izohlaydi.

Yuqorida keltirilgan asarlarda Hotamtoy obrazi oliyjanoblik saxiylik kabi hislatlarning fazilatini ochib berishga xizmat qilgan bo ‘lgan bo ‘lsada, ular orasidagi bir nechta farqlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun, Sa‘diy Sheroziy asarlarida Hotamtoy obrazi hatto dushmaniga ham saxovat qila oladigan darajada yuksak fazilat ila keltirilgan bo ‘lsa, Alisher Navoiy asarlarida esa Hotamtoy obrazi ko ‘proq ruhiy, ma‘naviy jihatdan pok va shu bilan birga qiyinchiliklarga himmati yuqori insonni Hotamtoydan ham ustunroq ekanligini ta‘kidlaydi.

Shuningdek, Hotamtoy obrazining saxiylikni ochib berishda dialog va vaziyat ham alohida ahamiyatga ega. Asar qahramonlarining suhbatlari davomida mazmun yanada oydinlashadi. Jumladan,

Dedi kel qulog ‘ing tutgil, eshit
Bilurmanki sir soqlagay mard yigit.
Taniysanmi Hotam degan bor ekan,
Bu yurt ichra dono-yu hushyor ekan.
Yaman shohiga boshi darkor emish,
Bilomamki qanday gunoh aylamish?
Makonin agar ko ‘rsatarsan bu kun,
Sening do ‘stliging shul bo ‘lur men uchun.
Kulib u yigit aytdi Hotam o‘zim,
Mana kes boshim, chin erur bu so‘zim.
Agar tong otib qolsa bo ‘lgay yomon,
Murodga yetolmay ko ‘rarsan ziyon.⁵

Yuqorida Hotamtoy va jallodning dialogidan ham ko ‘rinadiki Hotam o ‘zining mol-u dunyosi qolib dushmanga hatto jonini ham berishga tayyor darajada saxiyligi bilan birga mard va jasur oliy himmat personaj sifatida gavdalanadi. Navoiy asaridan keltirilgan parchada esa Navoiyning ichki dialogi orqali asl himmat qanday bo ‘lishi kerakligi va uni o‘ziga kasb qila olgan inson haqiqiy yutuqqa erishgan inson sifatida baholanishini yoritib bergan. Ikki mutafakkir olim Hotamtoy obrazini komil inson qanday hislatlarga ega bo ‘lishi va ahloqini

⁴ A. Navoiy “Hayrat ul-abror” Tosh. 2024. 20-bet

⁵ S. Sheroziy “Bo ‘ston” asar Tosh. 2024. 111-112-bet

namoyon etmoqchi bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Aslida ham izohli lug'atlarimizda ham Komil inson termini ana shunday izohlangan ya'ni kamolotga erishgan, bekamiko'st mukammal, mukammal. Hotamtoy obrazida ham ayni mana shunday komillik hislatlarini ko'rishimiz mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Sa'diy Sheroziy "Guliston" asari
2. Sa'diy Sheroziy "Bo'ston" asari
3. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostoni
4. Dilmurod.Quronov "Adabiyot nazariyasi asosalari"
5. www.wikipedia